



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **17,8 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **o'zgarishsiz qolgan**.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **18,4 mingtaga oshgan**.

2018 yilning yanvar-may oyida Respublikada 25,2 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 6,9 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 17,8 mingta (6,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 303,3 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Toshkent shahrida (21,1 %), Toshkent viloyatida (9,6%), Farg'ona (8,9 %) va Andijon (8,6 %) viloyatlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
O'zbekiston Respublikasi	318,9	100,0	303,3	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15,2	4,8	14,6	4,8
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	27,7	8,7	26,1	8,6
Buxoro	17,7	5,5	16,8	5,5
Jizzax	14,0	4,4	13,3	4,4
Qashqadaryo	20,3	6,3	19,7	6,5
Navoiy	10,5	3,3	10,2	3,4
Namangan	21,8	6,8	20,7	6,8
Samarqand	23,9	7,5	22,5	7,4
Surxondaryo	15,7	4,9	14,9	4,9
Sirdaryo	10,5	3,3	9,9	3,3
Toshkent	32,9	10,3	29,1	9,6
Farg'ona	27,6	8,7	27,1	8,9
Xorazm	14,9	4,7	14,1	4,7
Toshkent sh.	66,2	20,8	64,3	21,2


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,1 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,9 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda o'zgarishsiz qolgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 22,0 % savdoda, 17,2 % sanoatda, 8,7 % qurilishda, 7,5 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,1 % tashish va saqlash, 2,2 % axborot va aloqa, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 30,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-may holatiga 25219 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Toshkent shahrida (5444 ta), Toshkent (1965 ta), Farg'ona (2422 ta) va Samarqand viloyatlarida (1983 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (680 ta), Xorazm (918 ta) hamda Navoiy (996 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (5156 ta), sanoatda (4914 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2835 ta) va qurilishda (2810 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (570 ta), axborot va aloqada (583 ta) hamda tashish va saqlashda (889 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	21854	25219
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	3190	2835
Sanoat	5657	4914
Qurilish	1947	2810
Savdo	4344	5156
Tashish va saqlash	931	889
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1842	1600
Axborot va aloqa	531	583
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	388	570
Boshqa turlari	3024	5862

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-0,7 f.p) va savdoda (-0,6 f.p), kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+0,6 f.p.), qurulishda (+0,3 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,1 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+/-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,1	2,8	-0,7
Savdo	22,0	22,6	-0,6
Tashish va saqlash	4,1	4,1	0,0
Axborot va aloqa	2,2	2,2	0,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	30,2	30,1	0,1
Boshqa turlari	6,0	5,9	0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7,5	7,3	0,2
Qurilish	8,7	8,4	0,3
Sanoat	17,2	16,6	0,6

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 247,1 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 71,3 mingta, oilaviy korxonalar – 13,3 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 155,2 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,6 mingtani va boshqalar 6,7 mingtani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 6127 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 933 taga yoki 18,0 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 3374 tasi qo'shma korxonalar, 2753 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Toshkent shahar 3949 ta (64,5 %), Toshkent viloyati 677 ta (11,0 %) va Samarqand viloyatlari 331 ta (5,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xorazm viloyati 51 ta (0,8 %), Qashqadaryo viloyati 58 ta (0,9 %), Navoiy viloyati 69 ta (1,1 %) va Surxondaryo viloyati 89 ta (1,5 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 2596 ta (42,4 %), savdoda 1265 ta (20,6 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 1051 ta (17,2 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 86 ta (1,4 %), axborot va aloqada 151 ta (2,5 %), tashish va saqlashda 180 ta (2,9 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 209 ta (3,4 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 243 ta (4,0 %) va qurilishda 346 ta (5,6 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 776 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 496 taga ko'paygan yoki 2,8 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 158 ta, Turkiya Respublikasi – 118 ta, Qozog'iston Respublikasi – 87 ta, Xitoy Xalq Respublikasi– 106 ta va Koreya Respublikasi– 70 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 256 ta, savdoda 207 ta, qurilishda 75 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 65 ta va boshqa faoliyat turlarida 173 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 245,1 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 7,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 55,2 mingtasi (22,5 %) Toshkent shahriga, 23,7 mingtasi (9,7 %) Toshkent, 21,6 mingtasi (8,8 %) Farq'ona hamda 21,4 mingtasi (8,7 %) Andijon viloyatlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 245,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 66,4 mingtasi (27,1 %) – savdoda, 51,6 mingtasi (21,0 %) - sanoatda, 26,3 mingtasi (10,7 %) - qurilishda, 22,1 mingtasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 18,1 mingtasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 12,4 mingtasi (5,1 %) - tashish va saqlashda, 6,4 mingtasi (2,6 %) - axborot va aloqa sohasida, 4,8 mingtasi (2,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 37,1 mingtasi (15,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 22,2 mingdan oshiq kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 5,8 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Toshkent shahrida (5161 ta), Toshkent (2244 ta), Samarqand (1840 ta) va Farg'ona viloyatlarida (1706 ta) tashkil etilgan. Eng kam Sirdaryo (619 ta), Xorazm (773 ta) hamda Navoiy (844 ta) viloyatlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (5150 ta), sanoatda (4908 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2827 ta) va qurilishda (2807 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (562 ta), axborot va aloqada (581 ta) hamda tashish va saqlashda (885 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 13857 tani tashkil etib, ulardan 13248 tasi yoki 95,6 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **25,4** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 37,2 % yoki 4924 tasi sanoat, 21,2 % yoki 2808 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 16,6 % yoki 2201 tasi savdo, 11,3 % yoki 1469 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,3 % yoki 170 tasi qurilish, 1,1 % yoki 154 tasi axborot va aloqa, 1,1 % yoki 144 tasi tashish va saqlash, 1,0 % yoki 129 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 9,2 % yoki 1222 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha ulushi, % da



Davlat statistika qo`mitasi
Statistik registrlarni yuritish va tizimli
xizmat ko`rsatish boshqarmasi
Nashr uchun mas'ul: **N.Sheraliyev**
(0371) 230-80-91,90

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan